KUCH ADOLATDADIR Amir TEMUR

ADOLAT MEZONI

GAZETA 2010-YIL 3-MAYDAN CHIQA BOSHLAGAN // HUQUQIY-IJTIMOIY VA MA'NAVIY-MA'RIFIY GAZETA // ISSN 2181 - 483X WWW.ANDIJONSADOSI.UZ // № 40 (570) 2025-YIL, 20-SENTABR

2025-yil - Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili

"TABIATNI ASRASH – INSONNI, VATANNI ASRASH DEMAKDIR!"



Andijon shahridagi Alisher Navoiy nomli madaniyat va istirohat bog'ida ana shu mavzuda foto va tasviriy san'at asarlari ko'rgazmasi bo'lib o'tdi.

"Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili"ga bag'ishlanib, qolaversa, Butunjahon tozalik kuni oldidan Andijon viloyatida turli tadbirlar tashkil etilmoqda. Jumladan, Andijon viloyati Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi, "Tasviriy oyna" ijodiy uyushmasi viloyat bo'limi, O'zbekiston Ekologik partiyasi viloyat Kengashi va boshqa qator tashkilotlar hamkorligida o'tkazilayotgan foto hamda tasviriy san'at asarlari ko'rgazmasi ham ana shu yo'nalishdagi tadbirlardan biridir.

Oliy o'quv yurtlari talabalari, umumta'lim maktablari o'quvchilari, eko volontyorlar, ijodkor yoshlar, keng jamoatchilik vakillari ishtirok etgan ko'rgazmada viloyatdagi taniqli rassomlar, yosh musavvirlar, fotograflarning mavzu doirasidagi rang-barang asarlari, ijodiy ishlari namoyish etildi.

Ko'rgazma ishtirokchilarning mavzu doirasidagi bilim va qarashlarini boyitish bilan birga, ona tabiatga hurmat, mehr-muhabbat, uni asrab-avaylash nechog'lik muhim ekanligini chuqurroq anglashlariga yordam berdi.

– Namoyish etilgan asarlar men kabi ko'plab yoshlarning ona tabiatga muhabbatini, atrof-muhit tozaligini ta'minlashga bo'lgan daxldorlik hissini kuchaytirdi, – deydi "Yosh ekologlar" qanoti viloyat Kengashi raisi Saidibrohim Odiljonov. – Bu kabi tadbirlar tengdoshlarimizning ekologik bilim va madaniyatini yuksaltirish bilan birga, mazkur yo'nalishdagi targ'ibot ishlari samaradorligini yanada oshiradi.



"Tabiatni asrash – insonni, Vatanni asrash demakdir!" mavzusidagi foto va tasviriy san'at asarlari ko'rgazmasi viloyatning barcha tuman va shaharlarida, shuningdek, qator oliy o'quv yurtlarida o'tkazilishi belgilangan.

M.MAMATQULOV,
O'zbekiston Ekologik partiyasi Andijon viloyat Kengashi matbuot kotibi.

Qonunchilikdagi yangilik

MUALLIFLIK HUQUQINI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK KUCHAYTIRILDI

Har bir davlat, xalqning jahonda tutgan o'rni va nufuzida uning intellektual boyligining alohida o'rni bor. Mamlakatimizda 2005-yil 19-apreldan fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratish va ulardan foydalanish natijasida kelib chiqadigan munosabatlarni tartibga solish, mualliflar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan xalqaro huquqiy hujjat – Bern konvensiyasi qoidalari amal qilmoqda. Mamlakatimizning mazkur konvensiyaga qo'shilishi mualliflar va ularga tenglashtirilgan boshqa huquq egalariga katta imkoniyatlar yaratdi.

2022-yili 13 mingta intellektual mulk obyektlari ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, 2023-yili 15 mingtani va 2024-yili esa 19 mingtani tashkil qilgan.

Xorijiy korxonalarning O'zbekistonda 2022-yili 3 mingta, 2023-yili 3,3 mingta, 2024-yili 3,5 mingta intellektual mulk obyektlari ro'yxatdan o'tkazilgan.

Qonunchilikda tovar belgisi, ixtiro, dasturiy ta'minotga doir huquqlarni buzganlik uchun mavjud jazo choralarining yengilligi va jinoiy javobgarlik nazarda tutilmaganligi sababli ushbu sohadagi huquqbuzarliklarni oldini olish choralari samarali bo'lmayapti.

2022-yilda – 380 ta, 2023-yilda – 886 ta va 2024-yilda – 936 ta qonunbuzilish holatlari aniqlangan.

Tadbirkorlik faoliyatida intellektual mulkdan foydalanish ko'lamining yildan yilga ortib borishi, mamlakatda xalqaro brend va dasturiy ta'minotlar ko'payishi intellektual mulkning huquqiy himoyasini kuchaytirishni talab etmoqda.

Milliy qonunchilikda belgilangan intellektual mulk huquqini himoya qilish mexanizmlari Jahon savdo tashkilotining (JST) Intellektual mulk huquqlarining savdo aspektlari bo'yicha bitimi (TRIPS bitimi) talablariga mos kelmaydi.

JSTning TRIPS bitimi 61-moddasida intellektual mulk huquqlarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilash, shuningdek, bitimning 46-moddasida tovar belgisidan noqonuniy ravishda foydalanilgan holda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni yo'q qilish nazarda tutilgan.

Germaniya va Gruziyada intellektual mulk egalarining mulkiy huquqlarini buzganlik uchun 5 yilgacha, Qozog'istonda 6 yilgacha, Xitoy va Fransiyada 7 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo'llaniladi

Intellektual mulk obyektlarini ro'yxatdan o'tkazish bilan bog'liq tartib-taomillarni soddalashtirish va yengillashtirishga, shuningdek intellektual mulk egalarining manfaatlarini va ularning qonuniy huquqlarini samarali himoya qilish chora-tadbirlarini kuchaytirishga qaratilgan "Ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun qabul qilindi.

Qonun bilan 7 ta qonun va 4 ta kodeksga quyidagilar kiritilmoqda:

1) intellektual mulk obyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish jarayoni soddalashtirilmoqda;

(davlat boji to'langanligini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etish bekor qilinmoqda, intellektual mulk obyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazganligi yuzasidan hujjatlar QR-kod qo'yilgan holda avtomatik tarzda elektron shaklda berilishi belgilanmoqda)

2) EHM uchun yaratilgan dastur va ma'lumotlar bazasiga doir talabnomalar yuzasidan ekspertiza o'tkazish tartibi bekor qilinib, kerakli hujjatlarning bor-yo'qligini 10 kunda tekshirish mexanizmlari ko'zda tutilmoqda;

3) intellektual mulk sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlik choralari kuchaytirilib, mulkiy huquqlarni buzganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilanmoqda:

a) mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni buzganlik uchun (MJtKning 177^1-moddasi) ma'muriy jarima miqdori oshirilmoqda (jismoniy shaxslarga 1,8–11,2 mln so'm (amalda 375 ming – 3,7 mln so'm), mansabdor shaxslarga 5,6–18,7 mln so'm (1,8 – 7,5 mln so'm);

b) seleksiya yutug'iga va integral mikrosxema topologiyasiga bo'lgan huquqni buzganlik uchun (MJtKning 177^2-moddasi) ma'muriy jarima kiritilmoqda (jismoniy shaxslarga 1,8–7,5 mln so'm, mansabdor shaxslarga 3,7–11,2 mln so'm);

2022-yili 53 ta, 2023-yili 14 ta va 2024-yili 80 ta seleksiya yutug'iga patent berilgan.

v) patentga oid (ixtiro, foydali model, sanoat namunasi va seleksiya yutug'i) huquqbuzarliklar sodir etishda foydalanilgan ashyolarni musodara qilish qo'shimcha ma'muriy jazo chorasi sifatida kiritilmoqda;

Amalda musodara qilish tariqasidagi qo'shimcha jazo tovar belgilari va mualliflik huquqiga oid huquqbuzarliklar uchun belgilangan.

g) adliya organlarining intellektual mulk obyektlari bo'lgan kontrafakt tovarlarni ko'zdan kechirish va xatlash vakolatlari kiritilmoqda;

Davlat Rahbarining 2024-yil 24-maydagi PF–80-son Farmon bilan Adliya vazirligiga mazkur vakolat berilgan.

d) muallifning shaxsiy nomulkiy huquqlarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik choralari kuchaytirilib, buzilishi javobgarlikka sabab bo'ladigan intellektual mulk obyektlari doirasi kengaytirilmoqda;

Foydali model, sanoat namunasi, seleksiya yutuqlari, integral mikrosxemalar mualliflarining nomulkiy huquqlarini buzish jinoiy javobgarlikka sabab bo'lishi belgilanmoqda.

1-qismida jarimaning minimal miqdori 9,3 mln so'mdan 18,7 mln so'mgacha oshirilmoqda, axloq tuzatish ishlari jazosi o'rniga ozodlikni cheklash jazosi kiritilmoqda.

2-qismida (takroran, bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan bo'lsa) 28–37 mln so'm jarima yoki 360–480 soat majburiy jamoat ishlari yoxud 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki 2 yildan 3 yilgacha ozodlikni cheklash jazosi joriy etilmoqda.

ye) asarlardan yoki turdosh huquqlar obyektlaridan, o'zganing tovar belgisidan, geografik ko'rsatkichidan, tovar kelib chiqqan joy nomidan qonunga xilof ravishda foydalanish (obyektlarning kontrafakt nusxalarini takrorlash, tarqatish, barchaning e'tiboriga yetkazish) ko'p miqdorda zarar yetkazgan holda (187,5 mln so'mgacha) sodir etilgan bo'lsa jinoiy javobgarlik (149^1 va 149^2-moddalar) belgilanmoqda;

Mazkur turdagi jinoyatlar uchun jarima (18,7 – 56 mln so'm), axloq tuzatish ishlari (3 yilgacha), ozodlikni cheklash (3 yilgacha), ozodlikdan mahrum qilish (3-yilgacha) jazolari ko'zda tutilmoqda.

Yetkazilgan zararni qoplanganda ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanilmaydi, birinchi marta jinoyat qilgan shaxs jinoyat aniqlangan kundan 30 kun ichida moddiy zarar o'rnini qoplasa, javobgarlikdan ozod qilinadi.

j) ixtiroga, foydali modelga, sanoat namunasiga, integral mikrosxema topologiyasiga va seleksiya yutug'iga bo'lgan huquqlarni buzish (mahsulotni yoki buyumni ruxsatsiz tayyorlash, qo'llash, import qilish, sotishga taklif qilish, sotish) ko'p miqdorda zarar yetkazgan holda (187,5 mln so'mgacha) sodir etilgan bo'lsa jinoiy javobgarlik (149^3-modda) belgilanmoqda;

Mazkur turdagi jinoyat uchun jarima (18,7 – 37,5 mln so'm), majburiy jamoat ishlari (480 soatgacha), axloq tuzatish ishlari (3 yilgacha), ozodlikni cheklash (3 yilgacha) jazolari ko'zda tutilmoqda.

birinchi marta jinoyat qilgan shaxs jinoyat aniqlangan kundan 30 kun ichida moddiy zarar o'rnini qoplasa, javobgarlikdan ozod qilinadi.

4) Tovar belgisidan qonunga xilof ravishda foydalanilgan holda mahsulotlar (kontrafakt) huquqbuzar hisobidan muomaladan olib qo'yilishi va yo'q qilinishi nazarda tutilmoqda.

Sultonbek ISAKOV,
Andijon viloyat adliya boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari.

«KORRUPSIYASIZ JAMIYAT - TARAQQIYOT KAFOLATI
O‘zbekiston Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan «Adolat mezoni» gazetasining «Korrupsiyasiz jamiyat - taraqqiyot kafolati» loyihasi doirasidagi sahifa

KORRUPSIYASIZ KELAJAK SARI BIRGA OLG‘A QADAM TASHLAYMIZ

Korrupsiya – jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi eng xavfli illatlardan biridir. Bu davlat organlarida, biznes sohasida va hatto ta’lim tizimida ham uchrab, qonun ustuvorligiga putur yetkazadi, fuqarolarning adolatga bo‘lgan ishonchini pasaytiradi. Bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashish har bir davlatning strategik vazifalaridan biri hisoblanadi.

Korrupsiya – mansab vakolatlaridan shaxsiy manfaat yo‘lida foydalanishdir. Pora olish va berish – eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyotiga to‘siq bo‘luvchi illatga qarshi kurashda faqat davlat idoralari emas, balki butun jamiyat, har bir fuqaro faol ishtirok etishi zarur. Shaffof boshqaruv, qonun ustuvorligi va halollik tamoyillarini hayotga tatbiq etish korrupsiyaga qarshi eng kuchli quroldir. Kelajak avlod uchun adolatli va halol jamiyat qurish – barchamizning mas’uliyatimizdir.

Barchamizga sir emaski dinimizda ham bu qoralangan. Faqatgina pora olgan yoki sudxo‘rlik qilganlargina emas balki uni bergan va unga aralashgan insonlar ham birdek gunohkor bo‘ladi. Eng achinarlisi shundaki hozirda ta’lim sohasida ham korrupsiya holatlariga yo‘l qo‘yilayotgan hollar ham kuzatilmoqda. Oraga tanish bilish kiritib o‘qishga kirayotganlar, baholarini olish uchun pul berayotganlar, maktab va maktabgacha ta’lim muassasasiga ishga joylashish uchun ham ba’zi qo‘shtirnoq ichidagi insonlar ishga joylab qo‘yaman deb ma’lum miqdorda pul ham olmoqdalar.



Qanchalik korrupsiyani ildizi bilan yo‘qotishga urinmaylik ba’zi sohalarda buni aksini ko‘rib turibmiz. Bu jamiyatimizni rivojiga mamlakatimizning kelajagiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmayapti. Nafaqat ta’lim sohasi balki boshqa sohalar ham bundan mustasno emas. Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev korrupsiyani mohiyati va unga qarshi kurashish zarurligi haqida quyidagi fikri bejiz aytmagan edi: „ Jamiyat rivojiga g‘ov bo‘layotgan yana bir illat – bu korrupsiya balosidir. Bunday xatarga qarshi kurashish maqsadida yaqinda Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, Senatga yuborilgan “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi” qonunni tezroq amaliyotga joriy etish chora-tadbirlarini ko‘rishimiz lozim. Bularning barchasi o‘z navbatida inson huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimini takomillashtirishga xalqimizning davlat hokimiyatiga bo‘lgan ishonchni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Korrupsiyani tag tomiri bilan yo‘qotmas ekanmiz mamlakatimiz zavolga yuz tutaveradi.

Bugungi kunda dunyo mamlakatlarining taraqqiyoti, xalq farovonligi va davlatning nufuzi ko‘p jihatdan adolat va halollikka bog‘liq. Afsuski, korrupsiya deb ataluvchi illat hali-hanuz jamiyatimizda uchrab turibdi. Bu illat nafaqat iqtisodiyotga, balki odamlarning kelajakka bo‘lgan ishonchiga ham katta zarba beradi.

Korrupsiya — bu poraxo‘rlik, mansabni suiiste’mol qilish, qarindosh-urug‘chilikka tayanish kabi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Natijada jamiyatda adolatsizlik kuchayadi, halol mehnat qilayotganlarning qadri tushadi, davlat byudjeti zarar ko‘radi. Eng og‘iri — yoshlarning halollikka bo‘lgan ishonchi so‘na boshlaydi.

Shu bois, korrupsiyaga qarshi kurash har birimizning burchimizdir. Davlat idoralarida shaffoflikni ta’minlash, raqamli texnologiyalarni joriy qilish, qonun oldida barchaning tengligini mustahkamlash — bugunning eng asosiy vazifalaridandir. Ammo bunday ishlarni faqat hukumat emas, balki jamiyatning o‘zi ham qo‘llab-quvvatlashi kerak.

Biz yoshlar qalbida halollik, vatanparvarlik va mas’uliyat tuyg‘usini mustahkamlashimiz zarur. Chunki ertangi kun halol insonlar qo‘lida bo‘ladi. Har bir ota-ona, har bir o‘qituvchi, har bir rahbar o‘zidan boshlasa — jamiyatda katta o‘zgarish yuz beradi.

Korrupsiyaga qarshi kurash bu — faqat qonuniy jarayon emas, balki ma’naviy mas’uliyat hamdir. Halol bo‘lish — boylik emas, lekin eng katta boylikdir. Shunday ekan, keling, barchamiz halollikni qadrlaylik, jamiyatimizni toza va adolatli qilaylik. Chunki kelajakni faqat halol insonlar quradi.

Durdonaxon ZAMONOVA.

YARIM STAVKA UCHUN 400 DOLLAR



Muhabbat Asronova hali tuman maktabiga direktor bo‘lib kelganiga uncha ko‘p vaqt bo‘lganicha yo‘q edi. O‘tgan yil oxirida maktab direktori Ziyodaxon ismli shaxs ishdan bo‘shadi-yu, o‘rniga Muhabbat keldi. Yangi rahbar o‘qituvchilar bilan murosa qilolmadi, natijada rahbar va xodimlar orasida ko‘plab ko‘ngilsiz holatlar va asabbuzarlik, dilsiyohliklar kelib chiqdi. Ehtimol, bu, yangi rahbarning biroz o‘ziga ishonganligi, qolaversa, mol-dunyoga andak ishtiyoqmandligi sababidandir?! Yana kim bilsin?!

- Men, - dedi yangi direktor kabinetiga kirgan ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosar,-xabaringiz bor, necha yillardan beri bir stavka ishlab kelyapman. Qolgan 0,5 stavka bo‘sh turibdi. Shuning uchun, qolgan yarim stavkaga xodim topish kerak...

- Toping, - dedi direktor qisqa qilib.

Otajonov yaqin bir tanishini ko‘z oldiga keltirdi. Qachondan beri bu oliy ma’lumotli yigit ishsiz yuribdi. Oilasi bor, uni boqish kerak...

- Bizda yarim stavka ish bor, ishlaysizmi? - Otajonov kunda-kun ora ko‘rib turadigan tanishini qishloqning toshloq yo‘lida uchratgach, quvonib ketdi va darrov unga o‘z maktabidagi holatni tushuntirdi. “Direktor yangi, Muhabbatni taniysiz, ammo-lekin, sal injiqroq, shuning uchun eplab, kelishib ishlaysiz”, qo‘shimcha qildi gap orasida o‘rinbosar.

Oradan ko‘p o‘tmay, yangi nomzod – asli mutaxassisligi tarix o‘qituvchisi maktab direktoriga olib kelinib, tavsiya qilindi.

- Yaxshi, men buyruq chiqaraman, ammo, u 400 dollar berishi kerak, - dedi ochiqdan ochiq.

Otajonov hayron bo‘lib qoldi va bu holni borib yangi o‘qituvchi bo‘lmishga – tanishiga yetkazdi.

Chindan ham Tolib Otajonov bir necha yillardan beri shu qishloq maktabida ishlab kelar, uning qarindoshlari ham deyarli shu maktabda faoliyat yuritib kelayotgan kimsalar edi.

- Bir so‘m ham bermayman, - dedi Olimjon. Chunki, u direktorning xatti-harakatlari qonunga zid ekanligini bilib turardi. Bu yoqda yangi direktor keladigan mo‘may pul ilinjida ancha sarmast va baxtiyor edi. Hali mansabga o‘tirganiga hech qancha bo‘lmay, daromad orttirish, yana buning tekin va g‘ayriqonuniy yo‘lini tuta boshlagan bu rahbar ishi bilan yer tagida ilon qimirlasa biladigan viloyat qonun himoyachilari va huquqni muhofaza qilish organi xodimlari shug‘ullana boshladilar.

Otajonov yana direktor yoniga keldi.

- Mana, yangi xodimni olib keldim, - dedi u.

- Chiqib turaversin, - dedi biroz u yoq-bu yoqdan so‘ragan bo‘lgan direktor betoqatlanib. Olimjon eshikni yopishi bilan, “mening aytganim bo‘ldimi?”, deb so‘radi.

- Albatta, - dedi o‘rinbosar va pulni stol ustiga qo‘ydi:

- Mana!

Direktor to‘rt dona yangi xorij valyutasini olarkan, qalbida qandaydir quvonch paydo bo‘ldi. Ammo, u hali rejasi puch ekanligini, birovning bergani hazm bo‘lmasligini bilmas, bilsa ham, nafs oldida bu haqiqatni tan olishga ojiz edi. Shu kuni u qonun nozirlari tomonidan ashyoviy dalillar, tegishli xolis guvohlar ishtirokida qo‘lga olindi.

Jinoyat ishlari bo‘yicha Andijon tuman sudida ko‘rilgan jinoyat ishida, yangi rahbarning qonunga zid xatti-harakatlariga odilona baho berildi. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksi tegishli modda va bandlariga ko‘ra aybli deb topilgan Muhabbat Asronova qilgan jinoiy ishi uchun 2 yil rahbar va moddiy javobgarligi bor lavozimda ishlamaslik sharti qo‘yildi, 2 yilu 1 oy, 27 kun muddatga ozodlikni cheklash jazosi tayinlandi.

Maktab – pokiza joy, u istiqbol ostonasi. Hammamiz shu maktab dargohidan uchirma bo‘lganmiz, kamol topganmiz. Shunday muqaddas makonni oldi-berdi savdoxonasiga aylantirish, yaxshi niyatdagi oliy ma’lumotli bir shaxsni ish bilan qonuniy ta’minlab, o‘z hamqishlog‘iga yaxshilik qilish o‘rniga, uning cho‘ntagiga ko‘z olaytirgan murosasiz direktorning xurmacha qiliqlari ana shunday oqibatlarga olib keldi.

Ikromjon MANSUROV,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi.

Huquq

BOLAGA NISBATAN ZO‘RAVONLIK QILMANG!

Yurtimizda inson qadrini ulug‘lash, uning huquq va manfaatlarini ta’minlash bo‘yicha Konstitutsiyamizda mustahkamlab qo‘yilgan ustuvor tamoyillarni hayotga tatbiq etishda keng ko‘lamli va izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, yurtimizda bolalarning barcha huquq va erkinliklari kafolatlangan. 2024-yil 21-oktabr kuni davlatimiz rahbari tomonidan “Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan himoya qilish choralari kuchaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida”gi qonunning imzolanishi ham bu boradagi muhim voqeadir.

Mazkur qonun asosida O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat va Jinoiy-protsessual kodekslari hamda Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga tegishli o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritildi.

Gap shundaki, Jinoyat kodeksining 126^1-moddasi “Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik” deya nomlanib, ayni jinoyat uchun javobgarlik belgilangan. Xususan, uning ikkinchi qismiga muvofiq, xotinini (erini), sobiq xotinini (sobiq erini), bir ro‘zg‘or asosida birgalikda yashayotgan shaxsni yoki umumiy farzandga ega bo‘lgan shaxsni do‘pposlash, ushbu shaxslarga sog‘liqning qisqa muddat yomonlashuviga yoki mehnat qobiliyatining uncha uzoq bo‘lmagan muddatga yo‘qolishiga olib kelmagan qasddan badanga yengil shikast yetkazish, o‘sha harakatlar uchun ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan o‘ttiz baravarigacha miqdorda jarima yoki bir yuz oltmish soatdan uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi. Ushbu qismdagi “shaxsni yoki” degan so‘zlar “shaxsni yoki bolani, shuningdek” degan so‘zlar bilan almashtirildi. Yoki yuqoridagi moddaning uchinchi va to‘rtinchi qismlariga ham xuddi shunday o‘zgartishlar kiritildi.

Jinoiy-protsessual kodeksining “Yarashuv to‘g‘risidagi ariza” deya nomlangan 583-moddasi birinchi qismi esa “Yarashuv to‘g‘risidagi ariza jabrlanuvchi (fuqaroviy da’vogar) yoxud uning qonuniy vakili tomonidan surishtiruv va dastlabki tergovning, shuningdek sud muhokamasining istalgan bosqichida, ammo sud alohida xonaga (maslahatxonaga) kirishidan oldin berilishi mumkin, bundan ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno” degan tahrirda bayon qilindi. Shu bilan birga, mazkur modda yangi ikkinchi qism bilan to‘ldirildi. Unga ko‘ra, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik bilan bog‘liq ishlar yuzasidan yarashuv to‘g‘risidagi ariza sud muhokamasining istalgan bosqichida, ammo sud alohida xonaga (maslahatxonaga) kirishidan oldin berilishi mumkin.

Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 59^2-moddasiga binoan jinoyat alomatlari mavjud bo‘lmagan holda oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikka qo‘l urgan shaxs javobgarlikka tortiladi. Ayni moddasining ikkinchi qismida “Xotinini (erini), sobiq xotinini (sobiq erini), bir ro‘zg‘or asosida birgalikda yashayotgan shaxsni yoki umumiy farzandga ega bo‘lgan shaxsni do‘pposlash, ushbu shaxslarga sog‘liqning qisqa muddatga yomonlashuviga yoki mehnat qobiliyatining uncha uzoq bo‘lmagan muddatga yo‘qolishiga olib kelmagan qasddan badanga yengil shikast yetkazish, bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o‘n besh sutkagacha muddatga ma’muriy qamoqqa olishga sabab bo‘ladi” deya qayd etilgan. Endi shu qismdagi “shaxsni yoki” degan so‘zlar “shaxsni yoki bolani, shuningdek” degan so‘zlar bilan almashtirildi. Shu bois fuqarolar bolaga nisbatan oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik qilganlik uchun ma’muriy va jinoiy javobgarlik belgilanganini unutmasliklari kerak. Zero, Konstitutsiyamizning 78-moddasida bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to‘laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyati ekanligi belgilangan.

Ilhomjon SATVALDIYEV,
Jinoyat ishlari bo‘yicha Oltinko‘l tuman sudi raisi.
Kamolidin SHAXOBUTDINOV,
Jinoyat ishlari bo‘yicha Oltinko‘l tuman sudi tergov sudyasi.

ANDIJONDA PERINATAL TIBBIYOTGA BAG‘ISHLANGAN XALQARO ANJUMAN BO‘LIB O‘TMOQDA

Oila va bola salomatligini muhofaza qilish — mamlakatimizda doimo ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki sog‘lom avlod – yurtimiz kelajagining asosiy boyligidir. Shu maqsadda Andijon davlat tibbiyot institutida “O‘zbekistonda perinatal tibbiyot: bugun va ertaga” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o‘z ishini boshladi. Anjumanni viloyat hokimi Shuhratbek Abdurahmonov ochib, qatnashchilarni samimiy qutladi va tadbir ishiga ulkan muvaffaqiyatlar tiladi.

Tadbir doirasida soha mutaxassislari ona va bola salomatligini mustahkamlash, ilg‘or tajribalar almashish va yangi ilmiy yondashuvlarni muhokama qilishlari kutilmoqda.

D.ABDUMAJIDOVA,
“Adolat mezoni” muxbiri.





Mutaxassis maslahati

KOMSTOK QURTI - XAVFLI ZARARKUNANDA



Komstok qurti, kometok chervetsi (Psiudococcus comstocki Huw.) — koksidiyalar kenja turkumiga kiradigan hasharot, ichki va tashqi karantin obyekti. Birinchi marta 1890-yilda AQSHning Kaliforniya shtatida D.Komstok tomonidan topilgan. Urg‘ochisining tanasi uzunligi 3–4 mm, tuxum qo‘yish davrida 5–6 mm ga yetadi. Tanasi oq mumsimon parda bilan qoplangan, chetlarida 17 juft mumsimon o‘siq, shu jumladan, tana uzunligining yarmigacha boradigan ikkita dum ipi bor.

Ko‘zlari yirik, mo‘ylovlari 8 bo‘limli, erkagi 1,2—1,5 mm uzunlikda, qanotli, tusi qizg‘ish, ko‘zlari qora, qizil doiralar bilan o‘ralgan. Mo‘ylovlari 10 bo‘g‘imli. Urg‘ochisi 600 ga yaqin tuxum qo‘yadi. Tuxumining kattaligi 0,3 mm, oval shaklda. Daraxtlar kovagida, o‘simlik ildizlarida, xazon orasida, devor yoriqlarida tuxumlik bosqichida qishlaydi.

Bir yilda 3—4 avlod beradi. Aprel oyida tuxumdan chiqqan qurtlar zararlagan tut daraxti novdalari qing‘ir-qiyshiq bo‘lib, barglar sarg‘ayadi va qurib qoladi, daraxt tanasi, ildizlari va shoxlarida ishish va yoriqlar hosil bo‘ladi. Qurt tezagi bilan ifloslangan tut bargi esa ipak qurti uchun zararlidir.

Komstok qurti tut daraxtidan tashqari, shaftoli, anor, makkajo‘xori, kartoshka, karam, pomidor, qovun, tarvuz va bir qator boshqa ko‘pgina daraxtsimon va o‘tsimon o‘simliklarning tanasi, poyalari, shoxlari, barglari, kurtaklari, shona, g‘uncha, gullari, mevalariga va 5—6 sm chuqurlikda tuproqdagi ildizlarining yuqori qismiga zarar yetkazadi (oq momiqqa o‘xshagan qoldiq qoldiradi). Komstok qurti O‘zbekistonga 1939-yilda Yaponiyadan keltirilgan tut ko‘chatlari bilan kelib qolgan.

Kurash choralari: eng afzali biologik usul. Komstok qurtining kushandasi bo‘lgan psevdafikusni ko‘paytirib, zararlangan hududlarga tarqatish lozim. Agrotexnika tadbirlarini o‘z vaqtida o‘tkazish; begona o‘tlar, kuzda xazonlarni va qurigan shox-shabbalarni yig‘ishtirib yoqib tashlash; ekiladigan yangi ko‘chatlarni maxsus xonalarda dezinfeksiya qilish shart

M.MO‘MINOV,
Sh.BOLTABOYEV,
“Mingtepa”OKCHM davlat karantin ispektorlari.

Ijtimoiy ta’minot

XABARINGIZ BORMI?

Prezidentning “Nogironlik pensiyalari va kompensatsiyalarni tayinlashda proaktiv xizmatlarni joriy etish to‘g‘risida”gi 2025-yil 27-maydagi qaroriga muvofiq:

-2025-yil 1-oktyabrdan davlat pensiya ta’minotiga oid hamda AT “Xalq banki” tomonidan pensiyalarni naqd pul shaklida to‘lash bilan bog‘liq xizmatlar fuqarolarni biometrik identifikatsiya qilish (Face-ID) hamda ularning imzosini elektron shaklda olish orqali amalga oshiriladi.



MEHNAT DAFTARCHASINI RAQAMLASHTIRISH BO‘YICHA AYRIM SAVOLLARGA JAVOBLAR

- Raqamlashtirilgan mehnat daftarchasi pensiya tayinlashda qanday yordam beradi?

- Ish staji to‘g‘risidagi ma’lumotlar avtomatik tarzda aniqlanadi va pensiya tayinlash jarayonida sizdan qog‘oz shakldagi hujjatlar talab etilmaydi.

- Mehnat daftarchasini raqamlashganini qanday ko‘rishim mumkin?

- my.mehnat.uz yoki my.gov.uz portallari orqali shaxsiy kabinetingizdan ko‘rishingiz mumkin.

- Elektron mehnat daftarchasi ishonchli hisoblanadimi?

- Ha, u davlat tomonidan tasdiqlangan rasmiy elektron hujjat hisoblanadi.

- Korxona arxivi yoki mehnat daftarchasi yo‘qolgan taqdirda ish stajlarini qanday qilib “tiklash” mumkin?

- Agar fuqaroning ish staji to‘g‘risidagi ma’lumotlari yo‘qolgan bo‘lsa, ushbu vaziyatda yo‘qolgan mehnat faoliyati davrlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar sudning qarori bilan belgilanadi. Bunday holatga tushib qolgan fuqarolar ish stajlarini tiklatish uchun sudga murojaat qilishlari mumkin.



Savollarga Byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi Shahrixon tumani bo‘limi boshlig‘i Sh.TURAKULOV javob berdi.

ҲУРМАТЛИ «ANDIJONDONMAHSULOT» АЖ АКЦИЯДОРЛАРИ!

«Andijondonmahsulot» АЖ акциядорларининг навбатдан ташқари умумий йиғилиши 2025 йил 11 октябрь куни соат 14:30 да ўтказилади.

Йиғилиш ўтказиладиган манзил: Андижон шаҳри, Чинобод кўчаси, 21-уйда жойлашган жамиятнинг маъмурий биноси.

Акциядорларни рўйхатга олиш соат 13-30 дан бошланади.

КУН ТАРТИБИ:

1. Жамият акциядорлари умумий йиғилишининг регламентини тасдиқлаш.

2. Саноқ комиссияси таркибини сайлаш.

3. Жамият Кузатув кенгашининг 2025 йил 22 августдаги мажлисида кўрилган масалаларни кўриб чиқиш тўғрисида.

4. Жамият Кузатув кенгаши аъзоларини қайта сайлаш.

Ҳурматли акциядорлар, акциядорларнинг умумий йиғилишида қатнашиш учун ўзингиз билан шахсингизни тасдиқловчи ҳужжат (паспорт) билан келишингиз, вакиллар жумладан ҳуқуқий шахслар қонунчиликлар билан белгиланган тартибда расмийлаштирилган ваколатнома билан, жисмоний шахслар эса нотариал тартибда тасдиқланган ваколатномалар билан қатнашишлари лозимлигини билдирамиз.

Акциядорлар умумий йиғилиш ўтказилиши билан боғлик барча ахборот (материал) ва маълумотларни жамият маъмурияти ва Кузатув кенгашидан олиши мумкин (манзил: Андижон вилояти, Андижон шаҳри, Чинобод кўчаси, 21-уй)

Акциядорларнинг реестрлари акциядорларга хабар бериш учун 2025 йил 18 сентябрь ва йиғилишда иштирок этиш учун 2025 йил 7 октябрь куни ҳолатларига шакллантирилади.

Реестр ёпишга қарор қилган орган: Кузатув кенгаши.

Маълумот олиш учун тел: (74)- 226-19-44. +99891-287-15-40

Жамиятнинг веб-сайти: www.andijondon.uz, эл. почтаси: andijondon1963@gmail.ru

Кузатув кенгаши.

МЕРОСХЎРЛАР ДИҚҚАТИГА!

Андижон шаҳри, Дўстлик МФЙ, Мирболта кўчаси, 55-уйда яшаб, 2024 йил 27 апрель куни вафот этган марҳум **РАСУЛОВ ЯРКИН МУХАМЕДАМИНОВИЧ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Тошкент кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ф.Б.Джалолов нотариал идорасига,

Андижон шаҳри, Т.Келдиев кўчаси, 4-уйда яшаб, 2025 йил 4 апрель куни вафот этган марҳум **ТУРАКУЛОВ БАБИР ДАРМАНКУЛОВИЧ,**

Андижон шаҳри, А.Болтабоев кўчаси, 11-уйда яшаб, 2016 йил 21 сентябрь куни вафот этган марҳум **КУЧКАРОВ РУЗИМАМАТ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Тошкент кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Х.А.Максудов нотариал идорасига,

Хонобод шаҳри, Хонтог МФЙ, Хонтог кўчаси, 3-уй, 1-хонадонда яшаб, 2005 йил 26 январь куни вафот этган марҳум **АБДУКАРИМОВА ШАРИПА**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Хонобод шаҳри, Обод кўчаси, 134-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Н.Зулунов нотариал идорасига,

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2024 йил 12 декабрь куни вафот этган марҳум **ABDULLAYEV BAXTIYOR MUYDINOVICH,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2021 йил 18 июль куни вафот этган марҳум **ISMANOV MUXAMMADJON SHAVKATOVICH,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2000 йил 8 октябрь куни вафот этган марҳум **ЯМГИРЧИЕВ УРАЗБЕК РИСКУЛОВИЧ**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Жалақудуқ тумани, Ўзбекистон кўчаси, 57-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ф.Н.Акбаров нотариал идорасига,

Жалақудуқ тумани, Абдуллабий ҚФЙ, Ибрат МФЙ, Ибрат кўчаси 210-уйда яшаб, 1998 йил 9 февраль куни вафот этган марҳум **ТУРДИКУЛОВ АБДУМАЛИК КАРИМОВИЧ,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2025 йил 26 февраль куни вафот этган марҳум **ISAKOV MAXAMADJON,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2006 йил 28 декабрь куни вафот этган марҳум **ИСАКОВ МУМИНЖОН,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2006 йил 12 декабрь куни вафот этган марҳум **КАРАБАЕВ САҒЫН ТУРКБАЕВИЧ,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2021 йил 6 ноябрь куни вафот этган марҳум **NORMATOV MUXTOR TOJIYEVICH,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2005 йил 12 июль вафот этган марҳум **ХУЖАЕВА КАРАМАТХОН,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2025 йил 14 август куни вафот этган марҳум **KARABAYEVAVAZSULAYMANOVICH**ларнинг ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Жалақудуқ тумани, Ўзбекистон кўчаси, 57-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ш.Ю.Рахимов нотариал идорасига,

Избоскан тумани, Янги авлод МФЙ, Ойдин йўл кўчасидаги уйда яшаб, 2024 йил 22 февраль куни вафот этган марҳум **КУЧКАРОВ КОСИМЖОН ТУХТАСИНОВИЧ,**

Избоскан тумани, Чекёр МФЙ, Заминдиёр кўчасидаги уйда яшаб, 2024 йил 19 сентябрь куни вафот этган марҳум **РАХМОНОВ ЖУМАКУЗИ ТУРОНОВИЧ**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Избоскан тумани, Нақшбанд кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус С.К.Ботиров нотариал идорасига,

Марҳамат тумани, Шукурмерган МФЙ, Дўстлик кўчасидаги уйда яшаб, 2004 йил 11 октябрь куни вафот этган марҳум **ХАТАМКУЛОВА ТОШХОН**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Марҳамат тумани, Бобур шохкўчаси, 38-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Т.Усмонов нотариал идорасига,

Марҳамат тумани, Янги ҳаёт МФЙ, Чўлпон кўчасидаги уйда яшаб, 2025 йил 24 март куни вафот этган марҳум **ХУСАНБОЕВА МИНАВАРХОН НАЗИРЖОНОВНА**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Марҳамат тумани, Мустақиллик кўчаси, 114-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Б.И.Алиев нотариал идорасига,

Олтинкўл тумани, Айрончи МФЙдаги уйда яшаб, 2006 йил 27 октябрь куни вафот этган марҳум **ХОЛМИРЗАЕВ АХМАДЖОН ХОЛМИРЗАЕВИЧ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Олтинкўл тумани, Марказ маҳалласи, Олтин соҳил кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Б.К.Бердибеков нотариал идорасига,

Шаҳрихон тумани, Шокирбой МФЙда яшаб, 2024 йил 9 ноябрда вафот этган марҳум **MARAXIMOVA KO'PAYXON,**

Шаҳрихон тумани, Абдусамад МФЙда яшаб, 2025 йил 6 сентябрда вафот этган марҳум **ХЎЖАЕВ МАХМУДЖОН,**

Шаҳрихон тумани, Андижонлик МФЙда яшаб, 2024 йил 23 июнда вафот этган марҳум **IKRAMOV MAXAMMADJAN MAXMUDOVICH,**

Шаҳрихон тумани, Карнайчи МФЙда яшаб, 2015 йил 30 сентябрда вафот этган марҳум **YO'LDOSHEV ADXAMJON KAYUMOVICH,**

Шаҳрихон тумани, Қорабўйин МФЙда яшаб, 2025 йил 20 мартда вафот этган марҳум **АШИРМАТОВ СОХИБЖОН ХОЛДАРОВИЧ**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, тегишли ҳужжатлари билан Шаҳрихон тумани, Р.Ёдгоров кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Ахмаджонов нотариал идорасига;

Пахтаобод туманидаги уйда яшаб, 2023 йил 6 ноябрь куни вафот этган марҳум **СОДИКОВ АБДУЖАББОР ИСМОИЛОВИЧ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Пахтаобод тумани, Муаззинбой МФЙ, Олтин йўл кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Х.А.Рахмонов нотариал идорасига,

Пахтаобод тумани, Файзаобод маҳалласидаги уйда яшаб, 2025 йил 29 январь куни вафот этган марҳум **МАМАДАЛИЕВА МАХСУДАХОН**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Пахтаобод тумани, Озод диёр кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус М.Ў. Тўйчибоев нотариал идорасига мурожаат қилишлари сўралади.

ADOLAT MEZONI

MUASSIS: «Nurafshon gulshani» mas'uliyati cheklangan jamiyati

Muharrir: M.ORTIQOVA

Tahririyat manzili: Andijon shahri, Navoiy shohko'chasi, 71-uy. Telegram: (+998 99) 995-19-66 E-mail: and_mezoni@inbox.uz

Gazeta Andijon viloyati matbuot va axborot boshqarmasida 2010-yil 16-martda 04-040 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr ko'rsatkichi - 2536

Gazeta tahrirriyat kompyuter bo'limida terildi va sahifalandi. «ZAKOVAT» nashriyot uyi MCHJda original maket asosida chop etildi. Chop etishga topshirish vaqti 19.09.2025-yil, soat 11.00. Chop etishga topshirildi 19.09.2025-yil, soat 14.00. Korxona manzili: Kosonsoy shahri, Chorbog' ko'chasi, 17-uy. Hajmi 2 bosma taboq. Qog'oz bichimi A-3. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma № 11966. 188 nusxada bosildi.

Navbatchi: M.Mamatqulov. Dizayner: Sirojiddin Mamadali o'g'li